



TA'LIMDA TILLARNI O'QITISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI



YEVROPA VA TURKIY TILLAR KAFEDRASI

O'ZBEK VA RUS TILLARI KAFEDRASI

**TA'LIMDA TILLARNI O'QITISHNING
MUAMMO VA YECHIMLARI
(ПРОБЛЕМЫ ЯЗЫКОВОГО ОБУЧЕНИЯ
И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ/
PROBLEMS OF LANGUAGE LEARNING
AND WAYS TO SOLVE THEM)**

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TO'PLAMI



2026-YIL
4-IYUN



TOSHKENT
2026

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Yevropa va turkiy tillar kafedrası hamda O'zbek va rus tillari kafedrası tomonidan 2026-yil 4-iyunda o'tkazilgan **“Ta’limda tillarni o’qitishning muammo va yechimlari (проблемы языкового обучения и пути их решения// problems of language learning and ways to solve them)** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to’plami JIDU Ilmiy muvofiqlashtiruvchi kengashning 2026–yil 26-iyundagi 24–sonli majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

“Ta’limda tillarni o’qitishning muammo va yechimlari (проблемы языкового обучения и пути их решения// problems of language learning and ways to solve them) mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to’plami // – Toshkent: JIDU, 2026. – 396 bet.

Mas’ul muharrir:

O'zbek va rus tillari kafedrası mudiri, dotsent
Yevropa va turkiy tillar kafedrası mudiri,
dotsenti, f.f.n
Oliy ta’limdan keyingi ta’lim ofisi boshlig’i, s.f.n.

M.Abduraxmanova

V.Mamatkasimova

M. Siddiqova

Taqrizchilar:

P.Nishonov – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti fransuz tili (amaliy fanlar) kafedrası professori, f.f.n.

Sh.U.Narmatova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining O'zbek va rus tillari kafedrası dotsenti, f.f.n.

Ushbu ilmiy–amaliy konferensiyaning maqolalarini tahlil qilish va chop etishga tavsiya etish uchun tahririyat–noshirlik guruhi:

Sh.A. Xasanova – Yevropa va turkiy tillari kafedrası katta o’qituvchisi, f.f.f.d.(Phd)

G.Yu.Rofiyeva – Yevropa va turkiy tillari kafedrası katta o’qituvchisi, f.f.f.d.(Phd)

BADIIY TARJIMA FANINI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKT VOSITALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Xodjayeva Shoir Rustamovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universitetining mustaqil izlanuvchisi

hodjaeva.s.r@gmsil.com

Annotatsiya: Mazkur tezis badiiy tarjimani o‘qitishda sun’iy intellekt (SI) vositalarining didaktik imkoniyatlarini tahlil qiladi. Unda SI asosidagi tarjima tizimlaridan tayyor natija sifatida emas, balki qiyosiy tahlil, post-editing va reflektiv o‘rganish vositasi sifatida foydalanish masalalari yoritiladi. Tadqiqot sun’iy intellekt vositalari talabalarda tarjima kompetensiyasini, tanqidiy fikrlashni, stilistik sezgirlikni hamda badiiy matnning semantik, pragmatik va estetik jihatlarini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rnini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: badiiy tarjima, sun’iy intellekt, didaktik imkoniyatlar, tarjima kompetensiyasi, post-editing, qiyosiy tahlil, stilistik sezgirlik.

THE DIDACTIC POTENTIAL OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS IN TEACHING LITERARY TRANSLATION

Khodjaeva Shoir Rustamovna

Independent researcher of Tashkent State University of
Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

hodjaeva.s.r@gmsil.com

Abstract: This thesis explores the didactic potential of artificial intelligence tools in teaching literary translation. It examines how AI-based translation systems can be used not as ready-made translation sources, but as tools for comparative analysis, post-editing, and reflective learning. The study emphasizes the role of AI in developing students’ translation competence, critical thinking, stylistic awareness, and ability to evaluate semantic, pragmatic, and aesthetic aspects of literary texts.

Keywords: literary translation, artificial intelligence, didactic potential, translation competence, post-editing, comparative analysis, stylistic awareness.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt vositalarining jadal rivojlanishi o'qitish metodikasini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Badiiy tarjimani o'qitish jarayoni ham bundan mustasno emas, chunki u nafaqat lingvistik bilimlarni, balki estetik tafakkur, kontekstual tahlil va ijodiy yondashuvni talab qiladigan murakkab faoliyatdir. Sun'iy intellekt vositalari talabalarga turli tarjima variantlarini tezkor ishlab chiqish, matnlarni qiyosiy tahlil qilish va xatolarni aniqlash imkonini berib, o'quv jarayonini interaktiv va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, ularning didaktik imkoniyatlarini aniqlash va o'quv jarayoniga integratsiya qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish badiiy tarjimani o'qitishda yangi metodik yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etadi. Talabalar ko'pincha tayyor mashina tarjimasiga tayanib qolishlari natijasida mustaqil tahlil va ijodiy qaror qabul qilish ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmayapti. Shu bois, sun'iy intellektdan samarali foydalanish uchun uni nazoratli, reflektiv va tahliliy o'qitish modeli doirasida qo'llash zarur. Mazkur tadqiqot aynan sun'iy intellekt vositalarining badiiy tarjimani o'qitishdagi didaktik imkoniyatlarini aniqlash, ularning afzalliklari va cheklovlarini baholash hamda o'quv jarayoniga tatbiq etish yo'llarini asoslashga qaratilgan.

Asosiy qism. Badiiy tarjimani o'qitishda sun'iy intellekt vositalarining didaktik imkoniyatlari, avvalo, tarjima jarayonini avtomatlashtirish emas, balki uni tahliliy va reflektiv faoliyatga aylantirish orqali namoyon bo'ladi. SI vositalari (masalan, mashina tarjimasi tizimlari va generativ modellar) talabalarga bir vaqtning o'zida bir nechta tarjima variantlarini taqdim etib, ularni qiyosiy tahlil qilish, stilistik farqlarni aniqlash va pragmatik moslikni baholash imkonini beradi. Shu jihatdan, SI o'qitish jarayonida yordamchi vosita emas, balki didaktik muhitni kengaytiruvchi interaktiv platforma sifatida qaraladi.

A.Holmes sun'iy intellekt ta'lim jarayonida o'quvchini passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi va tahlil qiluvchi subyektga aylantirishini ta'kidlaydi [Holmes, 2019: 34]. R.Luckin esa SI vositalari individual o'rganish trayektoriyasini yaratib, ta'lim jarayonini talabalar ehtiyojiga moslashtirish imkonini berishini qayd etadi [Luckin, 2018: 67]. Shu jihatdan, badiiy tarjima darslarida SI vositalari talabalarga turli tarjima variantlarini solishtirish, stilistik farqlarni aniqlash va kontekstga mos yechim tanlash imkonini beradi.

Tarjima ta'limi nuqtasi nazaridan SI vositalarining muhim didaktik imkoniyati ularning "post-editing", ya'ni mashina tarjimasini tahrirlash ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qilishidadir. S.O'Brien mashina tarjimasini bilan ishlash talabalarda metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirib, tarjima qarorlarini ongli baholashga yordam berishini ko'rsatadi [O'Brien, 2012: 102]. L.Bowker esa SI natijalarini tanqidiy tahlil qilish tarjima o'qitishda baholash kompetensiyasi va mustaqil qaror qabul qilish malakasini kuchaytirishini ta'kidlaydi [Bowker, 2020: 89]. D.Kennyning fikricha, mashina tarjimasini natijalarini inson tarjimasini bilan qiyoslash talabalarga til me'yorlari, tabiiylik va stilistik moslikni chuqurroq anglash imkonini beradi [Kenny, 2019: 150]. Demak, SI badiiy tarjimada tayyor natija beruvchi vosita emas, balki tarjima sifatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va muqobil variantlar ishlab chiqishga xizmat qiluvchi didaktik instrumentdir.

Badiiy tarjima darslarida SI vositalaridan foydalanishning samaradorligi, avvalo, o'qituvchining metodik yo'naltiruvchi roli bilan belgilanadi. A.Holmes ta'kidlaganidek, sun'iy intellekt ta'limda o'qituvchini o'rnini bosmaydi, balki uning fasilitatorlik vazifasini kuchaytiradi [Holmes, 2019: 41].

Ushbu nazariy qarashlar shuni ko'rsatadiki, SI vositalari tarjimani o'qitishda tayyor javob sifatida emas, balki o'quv jarayonini chuqurlashtiruvchi didaktik instrument hamda tahlil obyekti sifatida qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. Badiiy matnlar bilan ishlashda SI tomonidan taklif etilgan variantlar ko'pincha semantik jihatdan to'g'ri bo'lsa-da, stilistik va emotsional qatlamlarda kamchiliklarga ega bo'ladi. Shu sababli ularni tahlil qilish talabalarning lingvistik va estetik sezgirligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Masalan, Shekspirning “Hamlet” tragediyasida uchraydigan “Sweets to the sweet” frazeologik iborasi SI tarjima tizimlari tomonidan ko‘pincha “Shirinliklar shiringa”, “Shirin narsalar shirin kishiga” yoki “Shirinlik shirinlarga” tarzida to‘g‘rida-to‘g‘ri tarjima qilinishi mumkin. Bunday variantlar lug‘aviy jihatdan “sweet” so‘zining denotativ ma’nosiga tayanadi, biroq iboraning badiiy-pragmatik mohiyatini to‘liq ochib bera olmaydi. Aslida bu ifoda kontekstda mehr, poklik, iztirob va ramziy bag‘ishlov ma’nolarini mujassam etadi. Shu bois badiiy tarjimani o‘qitish jarayonida talabalar SI tomonidan berilgan variantlarni badiiy tarjimonlar tomonidan taklif etilgan “Nafosat nafisaga qismat bo‘lsin, ol!” (M.Shayxzoda) hamda “Gulga gul joiz” (J.Kamol) kabi muqobillar bilan qiyoslab tahlil qiladilar. Natijada ular mashina tarjimasida yuzaga keladigan literalizm, semantik soddalashtirish va pragmatik yo‘qotishlarni aniqlashni o‘rganadilar.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt vositalari badiiy tarjimani o‘qitishda muhim didaktik resurs sifatida xizmat qilishi mumkin, biroq ular tayyor va tez tarjima manbasi sifatida emas, balki tahlil va muhokama obykti sifatida qo‘llanilgandagina yuqori samaradorlik beradi. SI tomonidan taklif etilgan tarjimalar ko‘pincha semantik jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa-da, badiiy matnga xos emotsional, stilistik va pragmatik qatlamlarni to‘liq ifodalay olmaydi. Shu sababli ularni inson tarjimasi bilan qiyoslash talabalarda tarjima jarayoniga nisbatan tanqidiy yondashuvni, variant tanlash va asoslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, SI vositalaridan foydalanish badiiy tarjimani o‘qitishda reflektiv va interaktiv metodlarni joriy etishga imkon yaratadi. Mashina tarjimasini tahrirlash (post-editing), qiyosiy tahlil va muqobil variantlar ishlab chiqish kabi mashqlar talabalarda lingvistik bilim bilan birga stilistik sezgirlik, pragmatik tafakkur va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Natijada, sun’iy intellekt vositalari asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni tarjima kompetensiyasini kompleks rivojlantirishga xizmat qilib, zamonaviy tarjimon tayyorlashda samarali metodik yechim sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bowker L., Buitrago C.J. Machine Translation and Global Research: Towards Improved Machine Translation Literacy in the Scholarly Community. – Bingley: Emerald Publishing Limited, 2019. – 128 p.
2. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019. – 243 p.
3. Kenny D. Technology in Translator TrAining // The Routledge Handbook of Translation Technology / ed. by M. O'Hagan. – London; New York: Routledge, 2020. – p. 498–515.
4. Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. – London: UCL IOE Press, 2018. – 160 p.
5. O'Brien S. Translation as Human–Computer Interaction // Translation Spaces. – 2012. – Vol. 1. – p. 101–122.
6. Shakespeare W. Hamlet. – London: Penguin Classics, 2005. – 342 p.
7. Шекспир В. Танланган асарлар: 5 жилдлик. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. Ж. 3. – 640 б.
8. Шекспир В. Сайланма (Жамол Камол таржимаси). 3 жилдли. – Т.: ЎзР ФА “Фан” нашриёти, 2007. Ж. 1. – 615 б.